

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12617824>

## O'QUVCHILARNING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH DOLZARB IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

To'ychiyev Xurshidbek Muxamatvali o'g'li

Renessans ta'lim Universiteti assistent o'qituvchisi

Fayzullayev Jamshidjon Jonizokovich

Renessans ta'lim Universiteti, Matematika va axborot  
texnologiyalari kafedrasи katta o'qituvchisi

*Annotatsiya:* Maqolada axborot ko'lamining globallashuvi jarayonida raqamli texnologiyalar davrida yosh avlodni manan yetuk barkamol shaxs sifatida shaxs kamol topishida ularning axborot xavfsizligini ta'minlash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida qaralgan. Uning ilmiy-nazariy asoslari tahlili berilgan.

*Tayanch so'zlar:* axborot, xavfsizlik, axborot xavfsizligi, ma'naviy bo'shliq.

Hozirgi axborot almashinushi global rivojlanayotgan bir davrda insoniyat taraqqiyoti bugungi bosqichining mahsuli, uning o'zi «mavhum», u faqat insonning aql-zakovati, iste'dodi va tinmay qilgan mehnati evaziga fan, texnika, texnologiya, zamonaviy kommunikatsiya yutuqlari ta'sirida moddiy kuchga (real voqelikka) aylandi va jarayon sifatida rivojlanmoqda. Bugun jamiyat hayotining turli sohalarida ham axborot xavfsizligining globallashish jarayoni dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Axborot xavfining salbiy ta'siridan bugungi kun kelajak avlodni himoya qilishda ta'lim sohasi xodimlari, ota-onalar va jamiyat vakillarining ogohligi, sergakligi va o'zligini asrashda o'zida mavjud bo'lgan imkoniyatdan samarali foydalanishi,

o‘zgarayotgan zamondan orqada qolmaslik uchun vaqtadan yutish zarurligini anglib yetish talab etilmoqda.

Bu borada Respublikamizda alohida etiborga loyiq bo‘lgan «Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘ri sida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 22-oktyabrda 848-son qarori [11], qabul qilindi. Ushbu Qonunga muvofiq bolalarning axborot xavfsizligini ta’minlash, ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish uchun axborot mahsulotini yoshga oid tasniflashda yoshga oid tasniflash mezonlari va axborot mahsuloti ekspertizasini amalga oshirish tartibi belgilandi.

Ammo «Xavfsizlik» tushunchasi ijtimoiy hayotning g‘oyat muhim hodisasi sifatida qadim o‘tmishdan buyon tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga jalb qilgan. Turli tarixiy davrlar va zamonlarda insonlarning xavfsizlik masalasiga turlicha qaralib kelingan. Insoniyat turmushining dastlabki bosqichlarida xavfsizlik asosan insonni tabiiy hodisalarning xavfli ta’sirlaridan, atrofdagi hayvonot dunyosidan himoya qilishni ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Insoniyatning doimiy taraqqiy topishi, hayot tarzining o‘zgarib borishi insonni nafaqat tabiiy xavf-xatardan, balki ularning o‘zları tomonidan yaratilayotgan xavflardan himoya qilish talab qilina boshlandi. Bu esa xavfsizlik tushunchasiga bo‘lgan turli davrlarda turlicha yondashuvlarni yuzaga keltirdi. Dastlabki yondashuvlardan biri, miloddan oldingi 427-347 yillarda yashagan Platon xavfsizlik holatini «zararning oldini olish» sifatida ko‘rib chiqishni taklif qilgan [2].

Sharqda saltanat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlashga qaratilgan fikrlarga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, ulardan Abu Nasr Forobi, Nizomulmulk, Amir Temur kabi mutafakkirlarning asarlariga tuxtalib o‘tamiz.

O‘z davrining ensiklopedik olimi bo‘lgan Forobiyning «Urush va tinch turmush haqida», «Shharni boshqarish», «Fozil odamlar shahri» [3], «Fazilatli xulqlar» kabi asarlaridaadolatli jamiyat qurish, mamlakat xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Nizomulmulkning (1018-1092 yy.) «Siyosatnoma» [4] (yoki «Siyar ul mulk») asrida mamlakat obodligi, uning aholisini faravonligi, tinchligi va totuvligini ta'minlash yo'llari yozilgan. Shuningdek, mamlakatning ichki va tashqi xavfsizligi, davlat boshlig'i va elchilarining xavfsizligini ta'minlash masalalari mualifning 30 yillik davlat boshqaruvi tizimidagi ish faoliyati natijasida ortirgan tajribalari asosida maslahatlar tarzda berilgan.

Sohibqiron Amir Temurning (1336-1405 yy.) «Temur tuzuklari» [5] da sultanatni tiklash, mustahkamlash, rivojlantirish bir so'z bilan aytganda sultanat xavfsizligini qanday ta'minlash masalalari yoritilgan. «Temur tuzuklari»ni xavfsizlik nazariyasi prizmasi orqali tahlil etadigan bo'lsak, unda sultanatning (davlatning) kuch-qudrati va uning yashovchanligi, jamiyatdagi raiyatning (xalqning) turli manfaatlarini ijtimoiy qatlamlar va turli jamiyat institutlari vositasida qanchalik e'tiborga olinishi bilan uzviy ravishda bog'liq ekanligini kuzatamiz.

Amir Temur sultanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgan, ya'ni: 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat'iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik; 4) ehtiyyotkorlik.

Davlatni kuchli va salohiyatli bo'lishi uchun ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini hisobga olish va vakillar bilan kengashib, maslahatlashib qarorlarni qabul qilish lozimligini Amir Temur markazlashgan davlat qurishi orqali isbotlab bergen.

Jumladan, ilmiy adabiyotlarda va lug'atlarda «axborot xavfsizligi» atamasi paydo bo'ldi. Mazkur atamaning mazmunida axborot xavfsizligidan tashqari, shaxs va jamiyatning mavjudligi hamda rivojlanishining qulay sharoitlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ijtimoiy institutlarning eng maqbul faoliyatini ta'minlovchi holatlarga ham urg'u berilgan.

Axborot xavfsizlik tushunchasining mohiyat va mazmunini yoritishga qaratilgan turlicha yondashuvlar bo'lib, quyidagi bo'limda ularni tizimli tahlili berilgan.

«Axborot xavfsizlik» tushunchasi mazmunini yoritishda uning tarkibiy qismi bo'lgan «xavfsizlik» tushunchasiga tayanamiz. V.Dalning izohli lug'atida «xavfsiz» atamasi xavfli bo'lmagan, xavf solmaydigan, zarar yetkazmaydigan, bezarar, ishonchli

deb keltirilgan. Xavfsizlik esa – xavf-xatarning yo‘qligi, xavfdan saqlanganlik, ishonchlilik deb izohlanadi[6]. Xavfsizlikka shuningdek, xavf solmaydigan holat, xavf-xatarga qarshi himoyaning mavjudligi sifatida qaralgan.

Xavfsizlik tushunchasiga berilgan ta’riflarda uning ma’nosи turlicha bo‘lib, siyosatshunos S.Z. Pavlenko turli adabiyotlarda xavfsizlik tushunchasiga bo‘lgan yondashuvlarni tahlil qilib ularning beshta talqinini ko‘rsatgan:

- xavfsizlik – shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoyalanganligi;
- xavfsizlik – xavf-xatarning mavjud emasligi;
- xavfsizlik – ma’lum bir aniqlangan holat;
- xavfsizlik – bu o‘z tizimiga ega bo‘lish;
- xavfsizlik – davlat organlarining o‘ziga xos faoliyati.

Mazkur yondashuvlar mohiyatini umumiylar tushunchasi sifatida qarasak xavfsizlik tavsifini alohida holat ko‘rinishida belgilashga imkon beradi. S.I. Ojegovning lug‘atida ham ushbu tushuncha an’anaviy tarzda aynan mana bunday izohlanadi: «xavf-xatar, tahdid solmaydigan holat yoki xavf-xatardan himoyalanganlik» [7].

Axborot xavfsizligi tushunchasiga ta’rif berishda, rus yoki xorijiy tillardan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ko‘pchilik axborotning xavfsizligi va axborot xavfsizligi tushunchalarini aralashtirib yuborishadi. Oqibatda turli tushunmovchiliklar kelib chiqadi. Vaholangki, axborotning xavfsizligi axborot xavfsizligining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xorij olimlaridan V.I. Yarochkin [8] axborot xavfsizligiga bu fuqarolar, ijtimoiy tashkilotlar va davlat manfaatlari yo‘lida foydalaniladigan hamda rivojlanishiga, shakllanishiga ko‘mak beruvchi jamiyat axborot muhitining himoyalanganlik holatidir deb ta’rif beradi. RF IIV Boshqaruв akademiyasining vakili Yu.A.Fisun [9] axborot xavfsizligini axborot muhitining davlat manfaatlariga muvofiq bo‘lgan, axborot sohasidagi ichki va tashqi tahdidlar ta’siridan qat’i nazar shakllantirish, foydalanish va rivojlantirish imkoniyatlari ta’minlanadigan himoyalanganlik holati, deb tavsiflaydi. Shunga o‘xhash fikrni I.N.Panarin [10] ham ilgari suradi, biroq u bunda Rossiya

jamiyati siyosiy elitasining hal qiluvchi roliga urg‘u beradi. Uning fikricha, mazkur elita informatsion ta’sirga amalda qarshilik ko‘rsatishga qodir. I.N.Panarin fikriga ko‘ra, axborot xavfsizligi – bu jamiyat va siyosiy elita axborot muhitining uni mamlakat rahbariyati, fuqarolar va davlat manfaatlarida shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlovchi holatidir. A.A.Ter-Akopov [11] axborot xavfsizligi tushunchasiga boshqacha ta’rif beradi. U sub’ektning axborot xavfsizligi deganda «...insonning hayotiy muhim manfaatlarini ta’minlovchi, axborotlarning himoyalanganlik holati»ni tushunishni taklif qiladi. Bundan tashkari, axborot xavfsizligining ijtimoiy sub’ektlar, institutlar hayot faoliyatining muayyan sifatlari ob’ektiv belgilangan innovatsiyalar bilan birga saqlanishi ta’minlanadigan holati, rivojlanish tendensiyalari va sharoitlari, degan ta’rifi ham mavjud. Yuqorida keltirilgan ta’riflar xavfsizlik holati faqat axborot sohasidagi ijtimoiy aloqa sub’ektlarining manfaatlariga bog‘liq ekanligi, tahdidlar darajasi ayni shu manfaatlarning mutanosibligi bilan belgilanishidan dalolat beradi, biroq ularda mazkur manfaatlarning hayotiy muhimligi, shuningdek tashqi tahdidlar ham mavjudligi ko‘rsatilmagan. A.A.Proxojev va N.A.Chukanovlar [12] axborot xavfsizligini – kompyuter tizimlaridagi maxfiy ma’lumotlarni xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan, texnik va dasturiy tadbirlarning uyg‘unligi deb fikr yuritadilar. Ularning nazariyalari bo‘yicha, axborot xavfsizligi 1970 yillarda yuzaga kelgan kompyuter xavfsizligi va 1980 yillarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar xavfsizligining mantiqiy davomi bo‘lib, hozirda bu axborot xavfsizligi deb atalmoqda deb tushuntiradilar. V.Gaykovichning [13] nazariyasi bo‘yicha axborot xavfsizligi bu - ma’lumotlarni istalmagan, begona sub’ektlardan sir saqlanishi, ularni ogoh etilmasligi, ma’lumotlarning buzulmasligi, yo‘qolmasligi yoki undan foydalanish imkoniyatining kamayishi, cheklash va noqonuniy tarqatilishini oldini olish deb hisoblaydi. V. Domaryov [14] o‘zining ilmiy qo‘llanmasida axborot xavfsizligi bu - oliy rahbariyatning qimmatga ega axborotlarni himoyalanganligi yuzasidan ma’suliyat va tashkiliy majburiyatlar masalalari bo‘yicha tutgan o‘rnining qisqacha ifodasidir deb boholaydi. Axborot xavfsizligi tushunchasining mazmuniga mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida, shuningdek

O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy-huquqiy hujjatlarida ham yoritilgan. Bulardan tashqari axborot xavfsizligiga O‘zbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolotlari to‘g‘ri sida»gi [15] qonunning 12, 13, 14, 15 moddalarida to‘htalib o‘tilgan. Unda davlatning axborot sohasidagi davlat siyosati hamda shaxs, jamiyat, davlatning axborot borasidagi xavfsizligiga alohida to‘htalib o‘tilgan. Yuqorida xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan axborot xavfsizligi tushunchasiga berilgan ta’riflar tahlili asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, axborot xavfsizligi o‘z ichiga ikki yo‘nalishni oladi:

Birinchisi, texnik-texnologik yo‘nalish bo‘lib, kompyuter va kompyuter tarmoqlarida axborotning yo‘qolishi, o‘zgarishi, nusha olinishi, o‘g‘irlanishi, axborotning ruhsat berilmagan holda(nesanksionirovanno‘y) tarqalishi, to‘sib qo‘yilishi va boshqa shu kabi tahdidlardan ishonchli himoyalanishi holatidir.

Ikkinchisi, targ‘ibot-tashviqot yo‘nalish bo‘lib, milliy o‘zlikni anglashni izdan chiqarishga, jamiyatni tarixiy va milliy an'analar hamda urf-odatlardan uzoqlashtirishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni buzishga qaratilgan axborot ekspansiyasidan himoyalanganlik holatidir. U keltiradigan zarar birinchinikiga nisbatan bir necha barobar katta. Bunda qurol bo‘lib, axborot o‘zi hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlilardan kelib chiqib, «axborot xavfsizlik» tushunchasiga qo‘yidagicha ta’rif berdik: o‘quvchilarning axborot xavfsizligi - bu yosh avlodning jismoniy, ruhiy, ma’naviy hamda axloqiy rivojlanishiga axborot orqali zarar yetkazilish xavfidan xoli, himoyalanganlikdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 22-oktyabrdagi “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘ri sida”gi 848-sonli qarori. <https://lex.uz>.
2. Платон. Сочинения. В 3 т. – М., 1971; Т.3. ч. I. – С. 112.

3. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993. – 171 b;
4. Nizomimulk. Siyosatnoma (Siyar ul-mulk). Ikkinchи to‘ldirilgan, qayta ishlangan nashri. T.: «Yangi asr avlodi», 2010. – 240 b.
5. Temur tuzuklari / Forschadan A.Sog‘uniy va H.Karomatov tarjimasi; B.Ahmedov tahriri ostida. – T.: Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1996. – B. 14.
6. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка: в 4 т. / В.И.Даль. М., 1955. Т. 1. С. 67.
7. Ожегов С.И. Словарь русского языка / под ред. Н.Ю. Шведовой. – 22-е изд. – М., 1990. – С. 47.
8. Ярочкин В.И. Информационная безопасность. – М.: Гаудеамус, 2004. – с. 6.
9. <http://www.bookler.ru/bookisbn/5-9512-0396-1.shtml>
10. <http://www.panarin.com>
11. <http://www.mnepu.ru/go.php?n=418>
12. Введение в информационную безопасность. Компьютеры: преступления, признаки уязвимости и меры защиты. - М.: 1998. - с. 496.
13. Гайкович В.Ю., Ершов Д. Основы безопасности информационных технологий. - М.: 2001. - с. 3.
14. Домарёв В. Безопасность информационных технологий. - Спб.: 2001. - с. 48.
15. Ўзбекистон Республикасининг «Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида»ги қонуни. Тўртинчи ҳокимият: Ўзбекистон Республикасининг қонунлари, қарорлари ва бошқа хужжатлари тўплами. - Т.: «Мехнат», 2003.